

GLOBALLASHUV VA UNING JAMIYAT HAYOTIDA NAMOYON BO'LISH SOHALARI

Teshaboyev Alixo'ja Ibragimovich

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika
Universiteti Stajyor-tadqiqotchisi -*

Annatatsiya: *Maqolada globallashuv tushunchasi va uning mazmuni va mohiyati, globallashuv haqidagi olimlarning tariflari, globallashuvning jamiyat hayotida namoyon bo'lishi, globallasguvning mamlakatlar hayotidagi o'rni va uning yoshlar ma'naviyatiga ko'rsatayotgan tas'iri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, millat, ezgulik, taraqiyot, jahon gemogenlashuvi, iqtisod, ma'naviyat, madaniyat, globalistlar, aksilglobalistlar, axborot texnologiyalari.*

СФЕРЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЕЕ ПРОЯВЛЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕ

Тешабоев Алиходжа Ибрагимович

*Ташкентская государственная
педагогика имени Низоми
Стажер-исследователь университета -*

Аннотация: *В статье описывается понятие глобализации и ее содержание и сущность, тарифы ученых о глобализации, проявления глобализации в жизни общества, роль глобализации в жизни стран и ее влияние на духовность молодежи.*

Ключевые слова: *глобализация, нация, добро, развитие, гомогенизация мира, экономика, духовность, культура, глобалисты, антиглобалисты, информационные технологии.*

GLOBALIZATION AND SPHERES OF MANIFESTATION IN SOCIETY

Teshaboyev Alikhoja Ibragimovich

*Tashkent State Pedagogy named after Nizomi
Intern-researcher of the University -*

Annotation: *The article describes the process of globalization and its meaning, scientists about globalization, the manifestation of globalization in the life of society, the place of globalization in the life and its influence on the spirituality of young people.*

Key words: *globalization, nation, goodness, development, world homogenization, economy, spirituality, culture, globalists, anti-globalists, information technologies.*

Hozirgi davr – dunyo g'oyaviy qarama – qarshiliklari murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Шунингдек, globallashgan dunyoda halqlarning an'anaviy madaniyatini o'rganish, milliy etnik masalalari ijtimoiy madaniyat fenomeni sifatida bir qancha ilmiy yo'nalishlarda dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. [2, -B. 676-688].

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la chegaralanib olgan birorta ham davlat yo'q.

Alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlardan ko'zlanayotgan strategik maqsad el-yurtimizning ertangi kuni, ravnaqi va taraqqiyoti, O'zbekistonning jahondagi o'rni va nufuzini belgilab beradigan tom ma'nodagi islohotlarni amalga oshirishdan iborat ekanligi ma'lum [3, -B. 1690-1694] Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlichadir. [4, -B. 1373-1377].

Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Bu jarayonni kengroq izohlaydigan bo'lsak, globallashuv (globalizatsiya) – lotincha “glob” so'zidan olingan bo'lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “quralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan texnika yutuqlari tufayli insoniyat ihtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushunish uchun ishlatiladi. Insoniyat taraqqiyoti ayni vaqtda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon asrdan asrga, ming yillar davom etgan.

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, ma'naviyati, madaniyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir. [5, -B. 6480-6487].

Qadimda odamzot ezgulikka intilib, bog'–rog'lar yaratib, shaharlar, beqiyos me'yoriy obidalar bunyod etgani, yovuzlik yo'lini Iskandar devori singari vositalar bilan to'sgani ma'lum. Tarixiy taraqqiyot davomida yaxlit jahon turli iqlim va mintaqalariga, qit'a va davrlarga ajraldi. Lekin XXI asrga kelib chegara va hududlarni tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib borayotgan globallashuv jarayoni va uning oqibatlari dunyo ahlini o'yga toldirmoqda, bu xaqda yer yuzining turli burchaklarida rang – barang fikrlar bildirilmoqda. Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin uning xususitlarini to'laroq qamrab olgan, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi ta'rifida globallashuvni uch o'lchovli jarayon ekanligiga urg'u beriladi: birinchidan globallashuv–muttasil davom etadigan tarixiy jarayon ekanligi; ikkinchidan, globallashuv – jahon gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashuvi jarayoni ekanligi; uchinchidan, globallashuv – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni ekanligi ga urg'u beriladi:

Tadqiqotchi S.Otamurtov birinchidan globallashuvni ob'ektiv jarayon sifatida baholaydi, ikkinchidan taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyati sifatida olib qaraydi, uchinchidan, unda inson omilini odingi o'ringa qo'yadi. Globallashuvning uchchala o'lchoviga ham e'tiroz bildirish mumkin. Biroq jahondagi jarayonlarni kuzatsak bularning uchchallasini ham ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon globallashuv jarayoni o'ta murakkab xodisa. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va manaviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonda [6, -B. 5477-5489] bir – biriga nisbatan raqobatda bo'lgan ikki guruh; globallar va aksilgloballar guruhlari vujudga keldi.

Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi.

Globallashuv muholiflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib, ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotlarining vakillari bor. MDH xududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqdalar, ular turli anjumanlar, seminarlar o'tkazish uchun to'planib turadilar.

XX asrning o'rtasida globallashuvning tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va shiddatli tus oldi. Bu tashkillashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki tashkilotlarining vujudga kelishi misolida ham ko'rish mumkin.

Globallashuvning tezlashishi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchaydi. Ular globallashuvning salbiy oqibatlariga emas, umuman uning o'ziga ham qarshi chiqa boshladilar.

Masalan, rossiyalik faylasuf va yozuvchi A. Zinov'ev "Aksilglobalizm vektorlari" nomli anjumanda so'zlagan nutqida shunday deydi. "Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'rmayapman. Faqat qarshilik!"- degan edi. Jozef Stiglitsning fikri quyidagicha: "globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potentsialidir, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi hayoti yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuvi sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi" [7, -B. 445-449]

Jagdish Bxagvati esa globallashuvni iqtisodiy voqelik sifatida baholaydi: "bu – o'ziga savdo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy oqim, xalqaro migratsiyalarni o'z ichiga oлади.

Globallashuvning mohiyati haqida fikr bildirganda uning qachondan beri amal qilishi haqida ham to'xtalish zarur. Bu xususda turli fikrlar mavjud. G'arb olimlaridan R.Kobden, J.Braytlar bozor munosabatlari vujudga kelishi bilan bog'lashadi [8]. Ayni damda globallashuvning halqaro maydondagi qarama-qarshiliklarga ta'siri g'oyasini N.Eyndjel o'zining "Buyuk illyuziya" nomli asarida asoslab bergan edi. O'zbek olimlaridan M.Xolbekov globallashuvni Makedoniyalik Aleksandr davriga taqab tahlil qiladi. B.Umarovning fikricha, "globallashuv jarayoni boshlanadigan aniq bir tarixiy davr va makonni ajratib ko'rsatish qiyin. Negaki, nazariy jihatdan qaraganda tarixiy taraqqiyot xususiyatlaridan qat'i nazar, xalqaro mehnat tizimiga uyg'unlashib borayotgan, xorijiy sarmoyalarni o'z iqtisodiyotiga izchil jalb etayotgan hamda

zamonaviy texnologiyalar sari intilayotgan har qanday mamlakat uchun globallashuv jarayoni tufayli vujudga kelgan iqtisodiy afzalliklardan foydalanish imkoniyati tug'ildi" [9].

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shundayli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. "Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, tsivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda" [1].

Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sir o'tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalalar olimlarimiz, siyosatchilarimizga yetarli ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffoqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur.

Globallashuvning hozirgi davrda uch manbai mavjud:

- kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar;
- investitsiyalardagi yangi jarayon;
- dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishi.

Globallashuv jarayonlariga to'g'ri yondashuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch - totuvlikni ta'minlaydi, davr zarbalaridan omon qolib yashash darajasini yuksaltiradi, ijtimoiy barqarorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta'minlaydi, hamda qo'shni davlatlarga nisbatan muloqot vositasi hisoblanadi. Globallashuvning ijobiy tomoni shundaki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashishini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Globallashuvning salbiy tomoni shundaki "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas" [1].

Bunday sharoitda har bir ongli fuqoroning vazifasi – o‘z millatining raqobatbardoshligini ko‘tarish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkorlik iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir. Buning uchun mustaqil O‘zbekistonning har bir fuqarosi 4 ta sifatga ega bo‘lishi kerak: 1) zamonaviy mutaxassis bo‘lishi; 2) o‘zbek davlat tili, rus tili, ingliz tillarini mukammal bilishi; 3) har doim o‘z bilim doirasini yangilab borishi; 4) tadbirkor – tashabbuskor bo‘lishi kerak [11].

Globalashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Xulosa tariqasida yuqorida bildirgan ba’zi fikrlarni takrorlash o‘rinli bo‘lardi. Ta’birjoiz bo‘lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviytazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin. Bu boradagi muammolar ta’lim-tarbiya tizimi oldiga bir qator vazifalarni qo‘ymoqda:

1. Ta’lim – tarbiya davomida yoshlarga hozirgi davrning globalashuv jarayonini va undan ko‘zlangan maqsadlarni tushuntirish. [12, -B.113-116]

2. Globalashuv jarayonlarining ijobiy va ayni damda salbiy oqibatlarini anglab yetishlariga erishish.

3. Yoshlarga mafkuraviy bo’shliq, ma’naviy tarbiya, ma’naviy tahdid tushunchalarini keng yoritib berish.

4. Globalashuvni ta’min etuvchi vositalar tizimini tahlil etish, ular hususida yoshlar keng qamrovlik tushuncha berish.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. 111-112 b

2. Kadirova H. The Place Of Karakalpak Ethnoculture In The Integration Of Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 676-688

3.X Kadirova, A Sheraliev. ГЛОБАЛИЗАЦИЯ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – B. 1690-1694

4.Y Kadirova.ENSURING NATIONAL SPIRITUAL SECURITY UNDER GLOBALIZATION//Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – B. 1373-1377.

5.Kadirova Yakitjan Buvabaevna, Kadirova Khalima Buvabaevna. METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF LEGAL IMMUNITY OF STUDENTS ON THE BASIS OF A SUBJECT-ETHICAL APPROACH. Journal of Pharmaceutical

Negative Results. 2022/12/23. Pp.6480-6487.

DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.771>

6. Buvabaevna K. Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 5477-5489.

7. Ya Kadirova, Sh Komilova. THE ROLE OF THE PROBLEMS OF THE MEDIA FIELD IN GLOBALIZATION PERIOD//Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B1. – 445-449

8.Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv. – “Tafakkur”, 2006, 4-son. 23-26 bet

9. BUVABAEVNA K. Y. LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA: LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA //Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1.

10.Mustaqillik: Izoxli ilmiy –ommabop lug‘at. Mualliflar:M.Abdullaev va boshqalar-T:SHarq, 2006.- 528 bet

11.Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 5. – C. 469-473.

12.Otamurotov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. Toshkent “O‘zbekmsion” 2013.

13. Buvabayevna N. et al. The role of museums in saving the national identity of Karakal Pakistan //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – T. 8. – №. 4. – C. 116-120.